



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<b>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<b>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<b>Dilsora Shodmonova</b>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<b>Истамова Нигора Азимжановна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</b>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<b>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</b>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<b>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</b>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<b>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</b>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<b>Lola Mannobova</b>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<b>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<b>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</b>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<b>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</b>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<b>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</b>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<b>Alimova Gulrux Farhod qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<b>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</b>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<b>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</b>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<b>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</b>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<b>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</b>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<b>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</b>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli .....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi .....	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi .....	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik .....	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations .....	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi .....	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida .....	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish .....	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan .....	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari .....	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari .....	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<a href="#">Xidirov Faxriddin Fozilovich</a>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<a href="#">Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</a>	

# OILAVIY ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA MAHALLA VA IJTIMOIIY XIZMATLARNING O'RNII

Dumarova Gulmira Kozimbekovna

Andijon davlat tibbiyot instituti

O'zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrası o'qituvchisi

To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi

Andijon davlat tibbiyot instituti Pediatriya fakulteti 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla institutlari va ijtimoiy xizmatlar tizimining o'rni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi ayollarga nisbatan zo'ravonlikning shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy oqibatlari bilan belgilanadi. Zo'ravonlik nafaqat jabrlanuvchining ruhiy salomatligiga, balki farzand tarbiyasi, oiladagi muloqot madaniyati, mehnat faolligi va jamiyatdagi ijtimoiy ishonch darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida mahalla fuqarolar yig'inlari, xotin-qizlar faollari, profilaktika inspektorlari, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik zo'ravonlikka uchragan ayollarga erta yordam ko'rsatishning muhim mexanizmi sifatida qaralmoqda. Maqolada milliy qonunchilik, Prezident tashabbuslari, xalqaro tajriba va ilmiy adabiyotlar asosida qo'llab-quvvatlashning huquqiy, psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy va reabilitatsion yo'nalishlari o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** oilaviy zo'ravonlik, xotin-qizlar, mahalla, ijtimoiy xizmat, himoya orderi, reabilitatsiya, psixologik yordam, huquqiy maslahat, ijtimoiy himoya, gender tenglik.

**Abstract:** This article examines the role of mahalla institutions and social services in supporting women affected by domestic violence. The study focuses on legal, psychological, social and economic mechanisms of assistance within Uzbekistan's ongoing reforms and international standards. Special attention is given to early identification, interagency cooperation, confidentiality, rehabilitation, legal counselling, temporary protection and restoration of women's social independence. The methodology is based on comparative legal analysis, a systems approach and synthesis of national and foreign scholarly literature. The findings show that victim-centred case management, professional training, digital monitoring and strong cooperation between mahalla activists, social workers, law enforcement bodies and non-governmental organizations can improve protection and rehabilitation outcomes.

**Key words:** domestic violence, women, mahalla, social service, protection order, rehabilitation, psychological support, legal counselling, social protection, gender equality.

**Аннотация:** В статье анализируется роль махалли и социальных служб в поддержке женщин, пострадавших от семейного насилия. Рассматриваются правовые, психологические и социально-экономические механизмы помощи, основанные на национальном законодательстве Узбекистана, современных реформах, международном опыте и научных исследованиях. Особое внимание уделяется раннему выявлению насилия, межведомственному взаимодействию, защите конфиденциальности, реабилитации, правовому консультированию и восстановлению социальной самостоятельности пострадавших женщин. Методология статьи включает сравнительно-правовой анализ, системный подход и обобщение научной литературы. Сделан вывод о необходимости усиления работы махалли и центров социальных услуг на основе индивидуального сопровождения и приоритета безопасности жертвы.

**Ключевые слова:** семейное насилие, женщины, махалля, социальная служба, охранный ордер, реабилитация, психологическая помощь, правовая консультация, социальная защита, гендерное равенство.

## KIRISH

Oilaviy zo'ravonlik zamonaviy jamiyatda inson huquqlari, gender tenglik, ijtimoiy adolat va sog'lom oila muhitiga bevosita daxldor bo'lgan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Ayolga nisbatan zo'ravonlik jismoniy tajovuz bilan cheklanmaydi; ruhiy bosim, iqtisodiy qaramlikka majburlash, tahdid, izolyatsiya, kamsitish, majburiy nazorat va ijtimoiy aloqalardan uzish kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Jahon sog'liqni saqlash tash-



kiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha deyarli har uch ayoldan biri hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikning biror shakliga duch keladi <sup>[1]</sup>. Bu ko'rsatkich oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish masalasini faqat huquqni muhofaza qilish sohasi emas, balki ijtimoiy xizmat, sog'liqni saqlash, ta'lim, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining umumiy vazifasiga aylantiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda so'nggi yillarda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish, oiladagi nizolarni barvaqt aniqlash, ayollar huquqlarini kafolatlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmogda.

"Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun xotin-qizlarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi <sup>[2]</sup>.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan PF-87-son Farmon oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi faolligini oshirish va mahalla darajasidagi ishlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan <sup>[3]</sup>.

PQ-175-son qaror esa "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderi talab etilmagan holda ham ijtimoiy, psixologik va yuridik xizmatlar ko'rsatish tartibini joriy etgani bilan alohida ahamiyatga ega <sup>[4]</sup>.

Mahalla O'zbekiston jamiyatida eng yaqin ijtimoiy institut sifatida ayolning muammosini erta sezish, oiladagi xavf omillarini aniqlash, murosa emas, avvalo xavfsizlikka asoslangan yordam choralari belgilash imkoniyatiga ega. Mahalla faoli, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim, profilaktika inspektori va psixologning uyg'un harakati zo'ravonlikning takrorlanishini kamaytirishi mumkin.

Mavzuning ilmiy ahamiyati mahalla va ijtimoiy xizmatlar o'rtasidagi hamkorlikni nazariy tushuntirish, amaliy jihatdan esa jabrlanuvchi ayollarni qo'llab-quvvatlash modelini takomillashtirish bilan belgilanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola metodologiyasi qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, kontent-tahlil, ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish va ijtimoiy xizmatlar amaliyotini konseptual modellashtirish usullariga tayandi. Qiyosiy-huquqiy tahlil orqali O'zbekiston qonunchiligi, Yevropa davlatlarining gender zo'ravonlikka qarshi yondashuvlari hamda MDH mamlakatlarida oilaviy zo'ravonlikni oldini olish tajribasi solishtirildi. Tizimli yondashuv mahalla, ichki ishlar organlari, sog'liqni saqlash muassasalari, "Inson" markazlari, nodavlat tashkilotlar va psixologik xizmatlar o'rtasidagi aloqalarni yaxlit mexanizm sifatida ko'rishga imkon berdi.

Yevropa ilmiy maktabida L. Heise zo'ravonlikni ekologik model orqali izohlab, individual omillarni oila, mahalla va jamiyatdagi gender me'yorlari bilan bog'laydi <sup>[5]</sup>.

S. Walby va J. Allen ayollarga nisbatan zo'ravonlikni strukturaviy tengsizlik, iqtisodiy qaramlik va institutsional javob mexanizmlari bilan izohlaydi.

MDH tadqiqotchilari orasida E. Zdravomyslova, A. Temkina, G. Sillaste va I. Kon ishlari oilaviy munosabatlarda gender rollari, patriarxal stereotiplar va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini tahlil qilishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy tadqiqotlarda O'zbekiston sharoitidagi mahalla instituti, xotin-qizlar faollari, "Ayollar daftari", ijtimoiy himoya va psixologik maslahat xizmatlarining amaliy imkoniyatlari yoritilgan.

Tadqiqotning tahliliy materiali sifatida O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari, WHO, UN Women, UNFPA, UNICEF hamda ilmiy maqolalar ma'lumotlari olindi. Tahlilda jabrlanuvchi manfaatini birinchi o'ringa qo'yish, maxfiylik, xavfsizlik, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, xizmatlar uzluksizligi va individual yondashuv mezonlari asosiy baholash indikatorlari sifatida belgilandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlar uch bosqichli vazifani bajarishini ko'rsatadi: erta aniqlash, xavfsizlikni ta'minlash va reabilitatsiya. Erta aniqlash bosqichida mahalla xodimlari oiladagi doimiy janjallar, ayolning ijtimoiy izolyatsiyasi, farzandlarning qo'rquv holati, moddiy qaramlik, tibbiy yordamga murojaat qilmaslik yoki qo'shnilar tomonidan bildirilgan xavotir signal-larini e'tiborga oladi. Bunday holatda vazifa oilani "yarashtirish" bilan cheklanmasligi kerak; xavf darajasi baholanib, ayolning hayoti va sog'lig'i ustuvor mezon sifatida qaralishi zarur.

Xavfsizlikni ta'minlash bosqichida himoya orderi, vaqtinchalik boshpana, tibbiy ko'rik, psixologik birlamchi yordam, huquqiy maslahat va zarur hollarda ichki ishlar organlari bilan tezkor hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. PQ-175-son qarorda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarining jabrlangan ayollarga ijtimoiy, psixologik va yuridik xizmatlar ko'rsatish vakolatlari belgilangan. Bu yondashuv zo'ravonlikka uchragan ayol yordam olish

uchun faqat himoya orderi rasmiylashtirilishini kutib qolmasdan, ijtimoiy xizmatga bevosita murojaat qila olishini anglatadi.

Reabilitatsiya bosqichida ayolning uzoq muddatli mustaqilligini tiklash maqsad qilinadi. Bunda kasb-hunarga yo'naltirish, ishga joylashish, bolalar bilan psixologik ish olib borish, huquqiy savodxonlikni oshirish, oilaviy budjetni rejalashtirish va ijtimoiy nafaqa yoki moddiy yordam mexanizmlaridan foydalanish muhimdir. Mahalla darajasida qo'llab-quvvatlash samara berishi uchun har bir holat bo'yicha individual reja tuzish, mas'ul mutaxassisni belgilash va natijalarni monitoring qilish zarur.

Quyidagi jadval mahalla va ijtimoiy xizmatlarning funksional farqlarini ko'rsatadi.

**1-jadval: Oilaviy zo'ravonlik holatlarida mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'zaro vazifalari**

Bosqich	Mahalla vazifasi	Ijtimoiy xizmat vazifasi	Kutiladigan natija
<b>Erta aniqlash</b>	Xavf signallarini sezish, ishonchli suhbat tashkil etish	Holatni baholash, murojaatni ro'yxatga olish	Zo'ravonlik yashirin qolmasligi
<b>Xavfsizlik</b>	Profilaktika inspektori va tegishli xizmatlarga xabar berish	Psixologik, yuridik va ijtimoiy yordamni boshlash	Jabrlanuvchi hayoti va sog'lig'i himoyasi
<b>Reabilitatsiya</b>	Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish	Individual reja, kasbga yo'naltirish, monitoring	Ayolning mustaqilligi va tiklanishi

Mahalla va ijtimoiy xizmatlar hamkorligining samaradorligi bir necha omilga bog'liq.

*Birinchi omil – maxfiylik va ishonch.* Jabrlanuvchi ayol o'z muammosi oshkor bo'lishidan, farzandlari yoki yaqinlari oldida ayblanishdan, zo'ravon shaxs tomonidan takroriy bosimga uchrashdan qo'rqishi mumkin. Shu sababli mahalla xodimlari va ijtimoiy xodimlar suhbatni ayblovchi ohangda emas, xavfsizlikka yo'naltirilgan professional yondashuv asosida olib borishi lozim. Ayolning roziligisiz ma'lumotni keng doirada muhokama qilish ishonchni pasaytiradi va murojaatlar sonini kamaytiradi.

*Ikkinchi omil – stereotiplarning kamayishi.* Ayrim hollarda oilaviy zo'ravonlik "oilaviy sir", "er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilik" yoki "sabr qilish kerak bo'lgan holat" sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv jabrlanuvchini himoyasiz qoldiradi va zo'ravonlikning davom etishiga zamin yaratadi. Zamonaviy ijtimoiy xizmat modeli zo'ravonlikni shaxsiy mojaro emas, inson huquqlarining buzilishi va ijtimoiy xavf sifatida baholaydi. Mahalla faollari huquqiy bilim, gender sezgirlik va psixologik muloqot madaniyatiga ega bo'lsa, ular oiladagi nizoni erta bosqichda to'g'ri yo'naltira oladi.

*Uchinchi omil – xizmatlararo integratsiya.* Ayol bir vaqtning o'zida huquqiy maslahat, psixologik yordam, tibbiy ko'rik, moddiy ko'mak, vaqtinchalik turar joy va farzandlari uchun ta'lim-tarbiya muhitini saqlashga muhtoj bo'lishi mumkin. Alohida-alohida ishlaydigan tashkilotlar ayolni idoradan idoraga yurishga majbur qiladi. "Yagona oynali" yoki "case-management" yondashuvi esa mas'ul ijtimoiy xodim orqali xizmatlarni muvofiqlashtirib, jabrlanuvchiga ortiqcha byurokratik bosimni kamaytiradi.

Xalqaro tajriba mahalla darajasiga o'xshash jamoaviy yordam institutlari zo'ravonlikka qarshi kurashda muhim ekanini ko'rsatadi. Yevropa davlatlarida boshpana, ishonch telefonlari, krizis markazlari, sud-huquqiy himoya va ijtimoiy ishning integratsiyalashgan modeli qo'llaniladi. UNFPAning 2025-yilda O'zbekistonda mahalla vakillari uchun gender zo'ravonlikni oldini olish bo'yicha treninglar tashkil etgani mahalliy darajadagi salohiyatni oshirish zaruratini tasdiqlaydi <sup>[6]</sup>. Bunday treninglar huquqiy bilim, diniy-ma'rifiy yondashuv va psixologik ko'nikmalarni birlashtirishi bilan foydalidir.

O'zbekiston sharoitida mahalla institutining kuchli tomoni – aholi bilan yaqinlik, oilaviy muhitni bilish va profilaktika imkoniyatidir. Zaif tomoni esa ayrim holatlarda professional ijtimoiy ish standartlari yetarli shakllanmagani, shaxsiy munosabatlarning aralashuvi va maxfiylikka doir xatolar bo'lishi mumkin. Ijtimoiy xizmatlar markazlari ushbu kamchilikni professional baholash, hujjatlashtirish, reabilitatsiya rejasini tuzish va xizmatlar sifatini nazorat qilish orqali to'ldiradi. Eng maqbul model mahalla ishonchi va ijtimoiy xizmat professionalligini uyg'unlashtirishdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlash masalasi huquqiy, psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillar kesishgan murakkab jarayondir. Ayolning zo'ravonlikdan chiqib ketishi faqat jazolash mexanizmlariga bog'liq emas; u xavfsiz muhit, ishonchli maslahat, vaqtinchalik himoya, psixologik tiklanish, moddiy mustaqillik va ijtimoiy qabul qilinishga ham ehtiyoj sezadi. Mahalla ushbu jarayonda eng yaqin ijtimoiy muhit sifatida muhim rol o'ynaydi, chunki u oiladagi xavf signallarini boshqalardan oldin payqashi, ayolga murojaat yo'lini ko'rsatishi va tegishli tashkilotlar bilan aloqa o'rnatishi mumkin.



Tahlil mahalla va ijtimoiy xizmatlarning vazifalari bir-birini takrorlamasligi, aksincha to'ldirishi kerakligini ko'rsatdi. Mahalla profilaktika, erta aniqlash, ijtimoiy ishonch va jamoaviy qo'llab-quvvatlash maydoni bo'lsa, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari professional baholash, individual reabilitatsiya rejasi, psixologik-yuridik yordam va xizmatlararo muvofiqlashtirish markazi sifatida namoyon bo'ladi. Ichki ishlar organlari himoya orderi, xavfsizlik choralari ko'rish va zo'ravon shaxs bilan profilaktik ish olib borish orqali tizimning huquqiy tayanchini ta'minlaydi. Nodavlat tashkilotlar, psixologlar, tibbiyot muassasalari va ta'lim tashkilotlari esa jabrlanuvchi hamda uning farzandlariga kompleks yordam beradi.

Maqolada ilgari surilgan asosiy ilmiy xulosa shundan iboratki, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashda samaradorlik alohida tashkilotlarning faolligidan ko'ra ularning o'zaro bog'langan, jabrlanuvchiga yo'naltirilgan va maxfiylikka asoslangan hamkorligiga ko'proq bog'liq. Mahalla xodimlari zo'ravonlikni "oilaviy kelishmovchilik" sifatida emas, inson huquqlarining buzilishi sifatida tan olishi zarur. Ijtimoiy xizmatlar esa ayolni faqat muammo egasi sifatida emas, o'z hayotini tiklash imkoniyatiga ega bo'lgan shaxs sifatida ko'rishi lozim.

Amaliy takliflar sifatida:

*Birinchidan*, mahalla faollari, xotin-qizlar faollari va profilaktika inspektorlari uchun oilaviy zo'ravonlikni aniqlash, xavf darajasini baholash va jabrlanuvchi bilan muloqot qilish bo'yicha muntazam treninglar joriy etilishi kerak.

*Ikkinchidan*, har bir tuman va shaharda mahalla, "Inson" markazi, ichki ishlar, tibbiyot va nodavlat tashkilotlar o'rtasida aniq yo'naltirish protokoli ishlab chiqilishi lozim.

*Uchinchidan*, murojaatlar bo'yicha ma'lumotlar maxfiyligi qat'iy ta'minlanib, raqamli monitoring tizimi orqali holatlarning takrorlanishi nazorat qilinishi maqsadga muvofiq.

*To'rtinchidan*, jabrlanuvchi ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish uchun kasb-hunar, mikromoliyaviy ko'mak, ishga joylashtirish va bolalar parvarishi xizmatlari birgalikda rejalashtirilishi zarur.

*Beshinchidan*, ommaviy axborot vositalari va mahallalarda zo'ravonlikni oqlovchi stereotiplarni kamaytirishga qaratilgan ma'rifiy ishlar kuchaytirilishi lozim.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, mahalla va ijtimoiy xizmatlar o'rtasidagi hamkorlik oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni himoya qilishning eng muhim mahalliy mexanizmidir. Mazkur hamkorlik inson qadrini ulug'lash, ayollar huquqlarini ta'minlash, sog'lom oila muhitini shakllantirish va jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston sharoitida huquqiy islohotlar, Prezident tashabbuslari va ijtimoiy xizmatlar tizimining rivojlanishi ushbu yo'nalishda keng imkoniyatlar yaratmoqda; endigi asosiy vazifa bu imkoniyatlarni har bir mahalla va har bir jabrlanuvchi ayol hayotida real himoya va tiklanish natijasiga aylantirishdan iborat.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Health Organization. Violence against women. Fact sheet. Geneva: WHO, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O'RQ-561-son "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-maydagi PQ-175-son "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi 3-son "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
7. Heise L. Violence against women: An integrated, ecological framework. Violence Against Women. 1998;4(3):262–290.
8. Walby S., Allen J. Domestic violence, sexual assault and stalking: Findings from the British Crime Survey. London: Home Office, 2004.
9. UNFPA Uzbekistan. Mahalla Staff Strengthen Skills to Prevent Gender-Based Violence. Tashkent, 2025.
10. UN Women. Global Database on Violence against Women and Girls. New York: UN Women, 2025.
11. Zdravomyslova E., Temkina A. The social construction of gender and family relations in post-Soviet societies. Saint Petersburg, 2015.
12. Sillaste G. Gender sociology and social policy in the CIS. Moscow: Infra-M, 2014.
13. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
14. G'oziyev E.G. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
15. UNICEF Uzbekistan. Social protection and child and family welfare services in Uzbekistan. Tashkent, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.